# OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2020.Ped/S.127.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

# OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

### NURULLAYEVA UMIDA NURIDDINOVNA

# XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY KAYFIYATI SOTSIOLOGIK TAHLIL OBYEKTI SIFATIDA

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

Sotsiologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

UO'T: 316.613.4-055.2(575.1)

# Sotsiologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

# Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по социологическим наукам

# Contents of Dissertation Abstrast of Doctor of Philosophy (PhD) on sociological Sciences

Nurullayeva Umi	ida Nuriddiı	novna			
Xotin-qizlarning sifatida	ijtimoiy	kayfiyati		_	•
Нуруллаева Ум				_	
Социальное н анализа	-				
Nurullaeva Umid Social mood of wo			ogical a	ınalysis	 49
Эълон қилинган	н илмий иш	лар рўйхати	I		
Список опублин	сованных ра	абот			
List of published	works				 53

# OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.21/30.10.2020.Ped/S.127.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

# OILA VA GENDER ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

### NURULLAYEVA UMIDA NURIDDINOVNA

# XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY KAYFIYATI SOTSIOLOGIK TAHLIL OBYEKTI SIFATIDA

22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

Sotsiologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

# Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/S146 raqam bilan roʻyxatga olingan.

Dissertatsiya Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch til (oʻzbek, rus, ingliz (rezyume)da Ilmiy kengashning www.mvaoiti.uz veb-sahifasi va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna

Ilmiy rahbar:

	pedagogika fanlari doktori, professor				
Rasmiy opponentlar:	Bekmurodov Mansur Bobomurodovich sotsiologiya fanlari doktori, professor				
	Sobirova Umida Farhodovna sotsiologiya fanlari doktori (DSc), dotsent				
Yetakchi tashkilot:	"Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini oʻrganish Markazi				
PhD21/30.10.2020.Ped/S127.01 raqar	gender ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi nli ilmiy kengashning 2025-yil "" soat [anzil: Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Chilonzor koʻchasi, 25-gmail.com; veb-sayt: www.moiti.uz.				
Dissertatsiya bilan Oila va gender ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( raqam bilan roʻyxatga olingan). Manzil: Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Chilonzor koʻchasi, 25-uy; e-mail: mvaoiti@exat.uz, mvaoiti@gmail.com; veb-sayt: www.moiti.uz.					
· · · · · · · · · · · · · · · · · · ·	vil "" kuni tarqatildi. i raqamli reyestr bayonnomasi).				

### N.M.Egamberdiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

#### **B.B.Mavlonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori

## Sh.M.Sodiqova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya fanlari doktori, professor

# KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Global miqyosda soʻnggi oʻn yilda barcha mintaqalar va yosh guruhlarida baxtsizlik boʻyicha farqlar 20 foizdan ziyodga oshgan. 2021–2023-yillarda har bir mintaqada salbiy histuygʻular erkaklarga nisbatan ayollarda koʻproq kuzatilgan 1. Ushbu vaziyat globallashuv, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, gender siyosati va qadriyatlardagi transformatsiya jarayonlari bilan bevosita bogʻliq boʻlib, jamiyat barqarorligining muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, dunyo aholisining 49,7 foizini² tashkil etuvchi xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyatini oʻrganish har bir mintaqada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari tomonidan xotinqizlarning ijtimoiy kayfiyatini oʻrganish boʻyicha tadqiqotlar olib boriladi. Bu tadqiqotlarda ayollar ijtimoiy kayfiyatining shakllanish mexanizmlari, inson faoliyatining turli jabhalariga ta'siri hamda natijalarini tushunishga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, jamiyatda kuzatilayotgan taraqqiyot dinamikasini tadqiq etish, tegishli nazariy-uslubiy bazani shakllantirish hamda ijtimoiy-psixologik muhitni optimallashtirishga yoʻnaltirilgan ilmiy tadqiqotlar ham ilgari surilmoqda.

Yangi Oʻzbekistonda "xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, rahbarlik qobiliyati va tadbirkorlik salohiyatini toʻliq roʻyobga chiqirish, ularga zamonaviy bilim berish, kasb-hunarga oʻrgatish va bandligini ta'minlash, ehtiyojmand va koʻmakka muhtoj ayollarning muammolarini tizimli hal qilish boʻyicha boshlangan katta ishlar" bundan keyin ham izchil davom ettirilishi davlat siyosati darajasida belgilangan. Ayollarning ijtimoiy kayfiyatini oʻrganuvchi ilmiy tadqiqotlar davlat siyosatining xotin-qizlar hayotiga ijobiy ta'sirini aniqlash, shuningdek, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, siyosatni takomillashtirish, resurslarni toʻgʻri yoʻnaltirishga xizmat qiladi. Shuning uchun hududlarda xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyatini sotsiologik tadqiq qilish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son, 2023-yil 21-dekabrdagi "Oila va xotin-qizlar qo'mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-208-son hamda 2024-yil 2-fevraldagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-28-son Farmonlari, 2023-vil 21-dekabrdagi mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha choratadbirlar toʻgʻrisida"gi PQ-401-son, 2022-yil 29-iyundagi "Mahallalarda ijtimoiy

-

<sup>&</sup>lt;sup>1</sup> Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish yechimlari tarmogʻi (UN Sustainable Development Solutions Network) veb-sayti. World Happiness Report 2024. [Elektron resurs]. — URL: <a href="https://worldhappiness.report/ed/2024/happiness-of-the-younger-the-older-and-those-in-between/">https://worldhappiness.report/ed/2024/happiness-of-the-younger-the-older-and-those-in-between/</a> (murojaat qilingan sana: 06.06.2024.).

<sup>&</sup>lt;sup>2</sup> Jahon Bankining rasmiy ma'lumotlar veb-sayti. Population, female. [Elektron resurs] – URL: <a href="https://data.worldbank.org/indicator/sp.pop.totl.fe.zs">https://data.worldbank.org/indicator/sp.pop.totl.fe.zs</a> (murojaat qilingan sana: 02.03.2025.).

<sup>&</sup>lt;sup>3</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Mirziyoyev Sh.M. Osiyo xotin-qizlari forumi ishtirokchilariga. [Elektron resurs] – URL: <a href="https://president.uz/oz/lists/view/7232">https://president.uz/oz/lists/view/7232</a> (murojaat qilingan sana: 12.03.2025.).

xizmatlarni koʻrsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish tizimini yangi bosqichga koʻtarish hamda xotin-qizlarni kasbga oʻrgatish ishlarini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-300-son qarorlari hamda faoliyatga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng koʻlamli, strategik choratadbirlarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari" nomli ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyati fenomeni Gʻarb mamlakatlari adabiyotlarida mustaqil va koʻp oʻlchovli konstruksiya sifatida chuqur tadqiq etilgan boʻlsa, mahalliy ilmiy-amaliy tadqiqotlarda mazkur masala "jamoatchilik fikri", "ijtimoiy ong", "ma'naviy hayot" hamda "qadriyatlar" kabi keng qamrovli kategoriyalar kontekstida oʻrganilgan.

Xorijiy olimlardan G.Lebon, G.Tard, Ch.Kuli 4 kabi mumtoz olimlarning ishlarida ijtimoiy ong, tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning o'zaro aloqadorligiga oid umumiy falsafiy qarashlar o'rganildi. R.Prechter, R.Elliott va J.Kasti <sup>5</sup> kabi sotsionomika yoʻnalishi tarafdorlarining tadqiqotlari orqali istiqboldagi siyosiy va iqtisodiy holatlarni prognozlashtirish, loyihalashtirish borasidagi muhim xulosalar tadqiq etildi. MDH davlatlari olimlaridan J.Toshenko va S.Xarchenko<sup>6</sup> qarashlari jamiyat hissiy holatining sotsiologik mohiyati va tarkibiy elementlarini aniqlash (ijtimoiy o'z-o'zini his qilish, baholash va kutuvlar) yo'nalishida muhim ahamiyatga ega. O.Aslanova, Ya.Krupets, I.Osinskiy, Z.Butuyeva, I.Romanova, M.Gorshkov, O.Xasbulatova <sup>7</sup> tomonidan amalga oshirilgan amaliy ishlarda turli ijtimoiydemografik toifalar kayfiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi dominant omillar atroflicha oʻrganildi. Ijtimoiy kayfiyat indikatorlari hamda umumiy indeksini oʻlchash, qiyosiy tahlil gilish amaliyoti Z.Janazarova, M.Shnarbekova, V.Kaminskiy,

\_

<sup>&</sup>lt;sup>4</sup>Окатов А. Теории коллективного поведения Г.Лебона и Г.Тарда в контексте современного гражданского общества. Вестник ТГУ., 2016. – №2. – С. 7-13.; Горшков Е. А. Интеракционистский подход Ч.Х.Кули к определению предмета и метода социальной психологии. Приволжский научный вестник. 2014. – № 11. – С. 80-85.

<sup>&</sup>lt;sup>5</sup>Пректер Р. Волновой принцип Эллиотта: ключ к пониманию рынка. – Москва: Альпина Паблишер, 2012. – 268 с.; Casti J.L. From Social Mood to Collective Events: Measuring the Path by Sociometers. The beacon: Journal for Studying Ideologies and Mental Dimensions. 2021.Vol. 4. – 42 p.

<sup>&</sup>lt;sup>6</sup> Тощенко Ж. Социальное настроение – феномен современной социологической теории и практики. Социологические исследования. 1998. – № 1. – С. 21–34.; Харченко С.В. Феномен и природа социального настроения. Мир науки, культуры, образования. 2011. – № 1. – С. 168-170.

<sup>&</sup>lt;sup>7</sup> Асланова О. Социальное самочуствие пожилых людей в регионе: социологическая оценка (на примере Краснодарского края). Автореф. дисс. ...канд. социол. наук. – Москва, 2012. – 22 с.; Крупец Я. Социальное самочувствие как интегральный показатель адаптированности. Социологические исследования. 2003. – №4. – С. 143-144.; Осинский И., Бутуева З. Социальное самочувствие: понятие, факторы формирования и показатели измерения. Вестник Бурятского Государственного Университета. 2015. – №14. – С. 39-40.; Романова И. Социальное настроение одиноких женщин посттрудового периода жизни (социологическое исследование на территории Забайкалья). Вестник Чит ГУ. 2011. – № 10 – С. 124-133.; Горшков М., Шереги Ф. Молодежь России в зеркале социологии. К итогам многолетних исследований. – Москва: ФНИСЦ РАН, 2020. – 688 с.; Хасбулатова О., Егорова Л. Социальное самочувствие женщин и мужчин в средних городах России. Социологические исследования. 2002. – № 11. – С. 48-54.

M.Krasilnikova, M.Morev, P.Yermolayeva, Ye.Noskova <sup>8</sup> tadqiqotlari asosida koʻrib chiqildi.

O'zbekiston mumtoz olimlaridan A.Navoiy, J.Rumiy, A.Farobiy, zamonaviy olimlaridan T.Narbayeva, A.Seitov, N.Latipova, M.Baltabayeva, M.G'afforova va L.Eryigitova <sup>9</sup> lar ilmiy ishlari va asarlari orqali mamlakatda xotin-qizlarning islohotlarga moslashuvi, hayot tarzi, unga daxldor sabablar (omillar), ijtimoiyiqtisodiy ishtiroki kabi masalalarga doir dolzarb xulosalar tadqiq etildi. O.Abduazimov, M.Ergasheva, U.Yazdonov M.Bekmurodov, ishlarida jamoatchilik fikri ijtimoiy muhitning ta'siri ostida shakllanadigan ijtimoiypsixologik hodisa sifatida oʻrganilgan. Ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini borasidagi fikrlarning oshirish omillari shakllanishida M.Alimova. N.Egamberdiyev<sup>11</sup> ishlarida yoritilgan jihatlar muhim oʻrin egalladi. Shuningdek, mamlakatdagi ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari tomonidan oʻtkazilgan amaliy tadqiqotlar davomida iste'molchilar fikrini hamda aholining ijtimoiy o'zoʻzini his qilishini oʻrganish amaliyoti tadqiqot instrumentariysini shakllantirishda foydalanildi.

Oʻzbekistonlik olimlarning ishlarida ijtimoiy kayfiyat masalasi, asosan, jamoatchilik fikri, ijtimoiy ong, hayot sifatidan rozi boʻlish, kelajak maqsadlari va qadriyatlarning evolyutsiyasi kabi sohalar bilan bogʻlangan holda oʻrganilgan boʻlsa-da, bizning tadqiqotimizda ijtimoiy kayfiyatga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, barqarorlikni mustahkamlash maqsadida gender tengsizlikni bartaraf etish, ta'lim va ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirish, salomatlikni yaxshilashga qaratilgan siyosiy strategiyalar tahlil qilindi. Shuningdek, xotinqizlarni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan siyosatning davomiyligi hamda yangilanishlarning natijadorligi baholanib, bu yoʻnalishda tegishli idoralar oʻrtasidagi aloqa va javobgarlikning ahamiyati qayd etildi.

-

 $<sup>^8</sup>$ Жаназарова 3., Шнарбекова М. Социальное самочувствие как индикатор качества жизни населения KazNU Bulletin. Psychology and sociology series. 2012. — №2. — С. 15-19.; Ермолаева П., Носкова Е. Социальные настроения россиян: методология интегральных оценок и эмпирические исследования. Россия вчера, сегодня, завтра. — 2012. — С. 58-71.; Красильникова М. Динамика социальных настроений и их влияние на поведение населения. Мониторинг общественного мнения. 2002. — № 1. — С. 57-65.; Морев М., Каминский В. Социальное настроение: факторы формирования и территориальные особенности. Проблемы развития территории. 2014. — № 4. — С. 48-66.

<sup>&</sup>lt;sup>9</sup> Нарбаева Т. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий химоя қилиш тизими самарадорлигини оширишнинг инновацион модели. Социол. фан. докт. ...дисс. – Тошкент, 2020. – 239 б.; Сеитов А. Этно-демографические особенности института семьи в Узбекистане. Постсоветские исследования. 2023. – Т.б. № 3. – С. 332-340.; Латипова Н. Роль традиций и обычаев в судьбе узбекской женщины. Научный журнал «Экономика. Социология. Право». 2019. – №2. – С. 90-98.; Эрйигитова Л. Семейные традиции узбеков: семья как объект исследования. "Россия и мусульманский мир". – 2019. – С.104-109.; Baltabayeva M. Oʻzbekiston Respublikasi хотіп-qіzlarining kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ishtiroki (1991-2019 yillar). Тагіх fan. dokt. ...diss. – Andijon, 2019. – 173 b., Ғаффорова М. Ўзбекистон ижтимоий-сиёсий ҳаётида хотин-қизларнинг мавкеи. Социол. фан. бўйича фалс. док. (PhD) ... дисс. – Т., 2018. – 176 б.

<sup>&</sup>lt;sup>10</sup>Бекмурадов М. Роль общественного мнения в социально-культурном развитии общества : автореферат дис. ... канд. соц. наук. - Ташкент, 1997. — 42 с.; Abduazimov O. Axborotlashgan jamiyatda jamoatchilik fikri monitoringini ta'minlashda ommaviy kommunikatsiyalar sotsiologiyasining oʻrni (Oʻzbekiston ommaviy axborot vositalarining 2001–2016-yillardagi materiallari misolida). Sotsiol. fan dokt. ...diss. — Toshkent, 2017. — 312 b.; Yazdonov U. Ijtimoiy ong shakllarining jamoatchilik fikrini tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishdagi funksional ahamiyati. Fals. fan. dokt. ...diss. — Samarqand, 2020. — 225 b.; Ergasheva M. Oʻzbekistonda xotin-qizlar faolligini yuksaltirishda jamoatchilik fikrining oʻrni va roli. Sotsiol. fan. fals. dokt. ... diss. — Toshkent, 2020 — 142 b. <sup>11</sup>Alimova M., Egamberdiev N. On the factors for improving the social activity of women in the socio-economic aspect // Science and innovation. International scientific journal. 2023. Volume 2. pp. 237-240.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya ishi JHBL-101-sonli "Qishloq xotin-qizlarining hayotiy maqsadlari, qadriyatlari va moʻljallari" (2022–2023-yy.), JHBL-5-sonli "Oilalarning baxtlilik indikatorlarining ilmiy-amaliy jihatlari va ularni hududlarda joriy etish" (2023-y.) mavzularidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyatini koʻrsatib beruvchi indikatorlarni ishlab chiqish va baholash orqali mazkur yoʻnalishni optimallashtiruvchi takliflar ishlab chiqishdan iborat.

# Tadqiqotning vazifalari:

xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyatini oʻrganish uchun nazariy va uslubiy poydevor yaratish (fenomenning oʻziga xosliklarini belgilash, yaqin tushunchalarga izoh berish, koʻrsatkichlarni, baholash mezonlarini, tadqiqot usullarini aniqlash);

xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatining shakllanishiga ta'sir koʻrsatuvchi hayotiy muhim omillarni aniqlash;

indikatorlar asosida xotin-qizlar ijtimoiy muammolarni aniqlash va ijtimoiy kayfiyatini empirik oʻrganish;

xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash siyosatini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni sotsiologik tadqiqotlar asosida shakllantirilgan tahliliy negiz yordamida ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti**ni xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyatiga ta'sir etuvchi hayotiy faoliyatini moddiy, ma'naviy, ijtimoiy hamda shaxsiy jihatlari, shuningdek, ularning yashash sharoitlari va omillari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Kompleks yondashuv, umumiylikdan xususiylikka oʻtish, omillar, tizimli va qiyosiy tahlil usullari tadqiqotning asosiy metodologik negizini tashkil etadi. Tadqiqotda ekspert intervyulari, anketa soʻrovlari va hujjatlar tahlili kabi sotsiologik usullar qoʻllanildi.

# Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyati ularning ijtimoiy mavqeyini ifodalovchi, iqtisodiy munosabatlar bilan oʻzaro bogʻliq holda rivojlanish jarayonlariga ingibitor yoki katalizator sifatida ta'sir koʻrsatuvchi, oʻzgaruvchan va koʻp omilli murakkab kategoriya sifatida asoslab berilgan;

xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyatini ularning dunyoqarashiga muvofiq jamiyatga moslashuv darajasini baholash maqsadida ishlab chiqilgan: "to'liq moslashayotgan", "qisman moslashayotgan" va "moslasha olmayotgan" toifalariga ajratish tizimi sotsiologik jihatdan asoslangan;

frustratsiya holatidan konstruktiv faollikka oʻtish jarayoni (shaxsiy rivojlanish, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va ayollarning jamiyatdagi rolini kengaytirish) ruhiy, oilaviy va ijtimoiy barqarorlik resurslarini ishga solish orqali amalga oshishi sotsiologik asoslantirilgan;

ijtimoiy tarmoqlardagi yolgʻon ma'lumotlar, manipulyativ kontent va jamoaviy muhit bosimlari xotin-qizlar kayfiyatida "raqamli stress" hamda ijtimoiy ishonch inqirozini shakllantiruvchi sotsiopsixologik omillar ekanligi empirik jihatdan asoslab berilgan.

# Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatini tadqiq qilishning sotsiologik asoslari (aprior model) takomillashtirildi;

xotin-qizlar dunyoqarashi tipologiyasi ishlab chiqildi;

xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatining empirik o'lchovlari amalga oshirildi;

xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash borasida amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qoʻllanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvoffiqligi; foydalanilgan nazariy yondashuvlar sotsiologik metodologiyalarga tayangan holda tadbiq etilganligi; xotin-qizlar oʻrtasida oʻtkazilgan maqsadli tanlovga asoslangan amaliy sotsiologik tadqiqot natijalariga tayanilganligi; xulosa va takliflarning tadqiqot natijalari asosida shakllantirilgani; qoʻlga kiritilgan natijalarning vakolatli organlar tomonidan ma'qullangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan nazariy qarash, shuningdek, materiallardan ilmiy manba sifatida sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, ijtimoiy falsafa, ijtimoiy pedagogika, siyosatshunoslik kabi sohalardagi ilmiy ishlar, darsliklar, oʻquv hamda uslubiy qoʻllanmalar yaratishda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ijtimoiy kayfiyatni tadqiq etish bosqichlari, instrumentariysi, ilgari surilgan amaliy taklif hamda tavsiyalardan ilmiy-amaliy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, gender tenglik va xotin-qizlar masalasidagi amaliy-tadqiqotlarda, ayollarni qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini optimallashtirish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "Xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyati sotsiologik tahlil obyekti sifatida" mavzusidagi dissertatsiya ishining ilmiy yangiligidan quyidagi oʻrinlarda foydalanildi:

xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyati ularning ijtimoiy mavqeyini ifoda etuvchi, iqtisodiy munosabatlar bilan oʻzaro bogʻliq, rivojlanish jarayonlariga ingibitor yoki katalizator sifatida ta'sir koʻrsatuvchi, oʻzgaruvchan hamda koʻp omilli murakkab kategoriya ekanligini asoslovchi yondashuv "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini oʻrganish Markazi tomonidan "Fuqarolar Oʻzbekistonda xotin-qizlarning roli, gender tenglik va zoʻravonlikdan himoya qilish haqida" mavzusida oʻtkazilgan tadqiqot doirasida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda qoʻllanildi ("Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini oʻrganish Markazining 2025-yil 23-oktyabrdagi 01-16/2013-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Markaz tomonidan oʻtkazilayotgan ijtimoiy soʻrovlar va tadqiqotlarning metodologik bazasi boyitildi;

jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyatini ularning dunyoqarashiga muvofiq ravishda jamiyatga moslashuv darajasini baholash maqsadida ishlab chiqilgan: "to'liq moslashayotgan", "qisman moslashayotgan" va "moslasha olmayotgan" ayollar toifalariga ajratish tizimi mamlakatni barqaror rivojlantirish bo'yicha SMTI tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda foydalanildi (Strategik va

mintaqalararo tadqiqotlar institutining 2024-yil 21-noyabrdagi 04-1/1208-sonli hamda 2025-yil 23-oktyabrdagi 04-4/1366-sonli ma'lumotnomalari). Natijada xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyati, ularning jamiyatga moslashuv darajasi ijtimoiy indikatorlar sifatida Institut tadqiqotlari dasturlariga kiritildi;

frustratsiya holatidan konstruktiv faollikka (shaxsiy rivojlanish, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va ayollarning jamiyatdagi rolini kengaytirish) oʻtish jarayonining ruhiy, oilaviy va ijtimoiy barqarorlik resurslarini ishga solish orqali amalga oshishi borasidagi amaliy xulosalar "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini oʻrganish Markazi tomonidan "Fuqarolar Oʻzbekistonda xotinqizlarning roli, gender tenglik va zoʻravonlikdan himoya qilish haqida" mavzusidagi tadqiqotning dasturi hamda savolnomalarini ishlab chiqishda foydalanildi ("Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini oʻrganish Markazining 2025-yil 23-oktabrdagi 01-16/2013-sonli ma'lumotnomasi). Bu, oʻz navbatida, xotin-qizlarning ijtimoiy muammolarini hal etishda ularning ichki resurslaridan foydalanish mexanizmini kuchaytirish borasidagi takliflarni ishlab chiqish imkonini berdi;

ijtimoiy tarmoqlardagi yolgʻon axborotlar, manipulyativ kontent va jamoaviy muhit bosimlari xotin-qizlar kayfiyatida "raqamli stress" hamda ijtimoiy ishonch inqirozini shakllantiruvchi sotsiopsixologik omillar ekanligi borasidagi amaliy xulosalar SMTIning tadqiqot faoliyatida yana bir bor oʻz isbotini topdi (Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutining 2024-yil 21-noyabrdagi 04-1/1208-sonli hamda 2025-yil 23-oktabrdagi 04-4/1366-sonli ma'lumotnomalari). Natijada tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqishda xotin-qizlar hamda gender masalalariga alohida e'tibor qaratish lozimligi boʻyicha xulosa qilindi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy gʻoyalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika konferensiyalarida e'lon qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqotning asosiy natijalari boʻyicha 12 ta ilmiy uslubiy ish nashr etilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan xorijiy jurnallarda 2 ta va mahalliy jurnallarda 4 ta ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi uchta bob, 8 ta paragraf, adabiyotlar roʻyxati va ilovadan iborat. Ishning hajmi 156 betni tashkil etadi.

### DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning oʻrganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, nazariy hamda amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot doirasida e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi toʻgʻrisida ma'lumotlar keltirib oʻtilgan.

Dissertatsiyaning "Xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatini kompleks tadqiq etishning metodologik asoslari" deb nomlangan birinchi bobi tadqiqot obyektini nazariy-metodologik jihatdan oʻrganishga bagʻishlangan. Mazkur bobda ijtimoiy kayfiyat fenomenining oʻzgaruvchanligi, ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanishi, oʻz-oʻzidan paydo boʻlib, stixiyali tarqalishi, bir vaqtning oʻzida natija

va sabab sifatida namoyon boʻlishi kabi xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan. Shu bilan birgalikda, "ijtimoiy oʻz-oʻzini his qilish", "subyektiv farovonlik" va "jamoatchilik fikri" singari tushunchalardan "ijtimoiy kayfiyat" kategoriyasining farqlari ochib berilgan. Xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatini aniqlovchi indikatorlar, ularni baholash mezonlari, oʻrganish usullari hamda uning metodikasi va texnikasini qamrab olgan aprior model ishlab chiqilgan. Tadqiqotning har bir bosqichi va oʻziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Dissertant ushbu bob doirasida xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatini integral koʻrsatkich sifatida baholashda uning mohiyati, xususiyatlari va tarkibiy elementlariga tayangan. G.Lebon, G.Tard, Ch.Kuli, A.Navoiy, J.Rumiy, A.Farobiy kabi mumtoz olimlarning "olomon" va "jamoatchilik asri" borasidagi nazariyalari, adolatli jamiyat hamda xotin-qizlar mavqeyi borasidagi fikrlari mazkur fenomenning falsafiy asoslari hamda oʻzgaruvchanlik xususiyatini ochib berishda, jamiyatda irratsional va ratsional fikrlaydigan insonlarning xulq-atvorini oʻrganishda foydalanilgan.

Ijtimoiy kayfiyat tushunchasining sotsiologik mohiyati hamda tarkibiy elementlari ("ijtimoiy o'z-o'zini his qilish", "ijtimoiy baholar", "ijtimoiy kutuvlar") borasida muallif fikrining shakllanishida J.Toshenko va S.Xarchenko kabi olimlarning konsepsiyalari muhim o'rin egallagan. Aholi va turli qatlamlar jamoatchilik fikrini hamda ijtimoiy kayfiyatini farqlashda O.Abduazimov, M.Ergasheva, Yu.Levada, U.Yazdonovlarning qarashlaridan foydalanilgan. Dissertant tomonidan aholi turli qatlamlari ijtimoiy kayfiyatining jamiyatga ta'sir etishi R.Prechter, R.Elliot va J.Kasti kabi olimlarning qarashlari bilan asoslagan.

Ushbu konsepsiyalar ta'sirida dissertant "xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyati" kategoriyasini "ularning ijtimoiy mavqeyini ifodalovchi, iqtisodiy munosabatlar bilan oʻzaro bogʻliq holda rivojlanish jarayonlariga ingibitor yoki katalizator sifatida ta'sir koʻrsatuvchi, oʻzgaruvchan va koʻp omilli murakkab fenomen" sifatida ta'riflagan.

Muallifning xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatini aniqlash va oʻrganishda kompleks tadqiqotlardan foydalanish lozimligi, ijtimoiy kayfiyatni baholashda unga ta'sir etuvchi dominant omillarni aniqlash muhim ahamiyatga egaligi borasidagi fikrlari O.Aslanova, Ya.Krupets, Z.Butuyeva, M.Gorshkov, F.Sheregi, V.Xashenko kabi tadqiqotchilarning nazariy va amaliy ishlaridagi ilmiy yondashuvlar bilan asoslangan.

Xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatini oʻlchash indikatorlari (oʻz-oʻzini his qilishi, moddiy holatidan qoniqishi, maqsadli indikatorlarning baholanishi) xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatini baholashning asosiy yoʻnalishlari hisoblanadi. Har bir yoʻnalish bir qator obyektiv va subyektiv indikatorlarni qamrab olgan boʻlib, amaliy tadqiqotlar ("Ayollar, biznes va qonun" indeksi, Xalqaro baxt indeksi, Inson taraqqiyoti indeksi, Demokratiya indeksi kabi), shuningdek, xorijiy (R.Katrin, R.Patnem, I.Romanova, N.Sedova, I.Osinskiy) va mahalliy (T.Narbayeva, R.Ubaydullayeva, N.Rahimova, N.Egamberdiyeva, U.Yazdonov, A.Musurmonova, O.Abduazimov, T.Karimov) olimlarning ishlari asosida tizimlashtirilgan.

Ijtimoiy kayfiyat indeksini oʻlchash metodikasi, baholash mezonlarini va tadqiqot instrumentariysini ishlab chiqish bosqichlari atroflicha keltirib oʻtilgan boʻlib, Z.Janazarova, M.Shnarbekova, P.Yermolayeva, M.Morev, O.Xasbulatova kabi olimlarning hamda "Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini oʻrganish Markazi, Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti, Iqtisodiy tadqiqotlar markazi, VSIOM, Levada kabi ilmiy-tadqiqot markazlarining amaliy ishlanmalari va nazariy xulosalariga tayanilgan.

Xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatini baholash va kompleks oʻrganish maqsadida dissertant anketa soʻrovlari bilan birgalikda ekspert baholari usulidan foydalangan. Xususan, "Xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyati indikatorlari va ularni baholash mezonlari" mavzusida 2023-yil sentyabr-dekabr oylarida oʻtkazilgan soʻrovlar davomida 67 ta xotin-qizlar va ularning muammolari bilan uzoq yillar ishlagan yuqori malakali ekspertlar bilan chuqurlashtirilgan yarim standartlashtirilgan intervyular hamda ekspert xohishiga koʻra elektron yoki yozma tarzda ochiq savolli standartlashtirilgan soʻrovlar oʻtkazilgan.

2024-yilning iyun oyida "Xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyati va hayotiy muammolari" mavzusida oʻtkazilgan anketa soʻrovlari davomida hududlar (Buxoro, Fargʻona, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri) stratifikatsion kvotali tarzda, respondentlar (863 ta) esa tasodifiy hamda maqsadli (hudud, yosh) tanlangani, instrumentariyni shakllantirish jarayonida qoʻllanilgan shkalalar (5 ta javobdan iborat boʻlgan bipolyar reyting shkalasi) hamda ularni oʻlchash usuli (ijtimoiy kayfiyat indeksi) aks ettirilgan.

Xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyati indeksini hisoblashda klassik usuldan (toʻliq ijobiy va koʻp jihatdan ijobiy (yarmi olinadi) javoblarning ulushlari yigʻindisi hamda aniq salbiy va koʻp jihatdan salbiy (yarmi olinadi) javoblarning ulushlari yigʻindisi oʻrtasidagi farq asosida baholar balansi) foydalanilgan. Xususan, ijtimoiy kayfiyat xususiy indekslari quyidagi formula orqali oʻlchangan (1):

$$XI = \frac{\text{TI} + 0.5 * \text{KI} - 0.5 * \text{KS} - \text{TS}}{\text{TI} + 0.5 * \text{KS} + 0.5 * \text{KS} + \text{TS}}$$
(1)

Bunda:

XI – xususiy indeks;

TI – toʻliq ijobiy javoblar;

KI – koʻp jihatdan ijobiy javoblar;

KS – koʻp jihatdan salbiy javoblar;

TS – toʻliq salbiy javoblar.

Xususiy indekslar yigʻindisining oʻrtacha arifmetik koʻrsatkichi asosida esa xotin-qizlarning umumiy ijtimoiy kayfiyat indeksini oʻlchangan. Indeksning manfiy qiymatlarga ega boʻlishining oldini olish uchun oʻlchash davomida chiqqan natijaga 100 ballni qoʻshish amaliyoti qoʻllanilgan va xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyati indeksi 0 dan 200 gacha boʻlgan qiymat oraligʻida baholangan. Mazkur indeks 100 balldan past boʻlsa, jamiyatda salbiy baholar, 100 dan yuqori boʻlsa, ijobiy baholar ustunligi namoyon boʻlishini belgilagan.

Ijobiy indeks koʻrsatkichlarini baholash shkalasi sotsiologik tadqiqotlarda kuzatiladigan ijobiy va salbiy fikrlarning mutanosibligi toʻgʻrisidagi mavjud tamoyillarga asoslangan. Xususan, 150 balldan past koʻrsatkichlar "quyi ijobiy", 150-170 ball oraligʻidagi natijalar "oʻrta ijobiy" va 170 balldan yuqori koʻrsatkichlar "yuqori ijobiy" baholar sifatida tasniflangan. Dissertantning fikricha, ushbu yondashuv ijobiy baholashning intensivligini hududlar va vaqt oraligʻida qiyosiy tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Dissertatsiyada ijtimoiy kayfiyat fenomenini toʻliqroq oʻrganish va tahlil qilish, shuningdek, amaliy jihatdan foydali xulosalar chiqarish maqsadida quyidagi mezonlarga asoslanish lozimligi ta'kidlangan:

*birinchidan*, kayfiyat ijobiyligi yoki salbiyligi xotin-qizlarning maqsad va kutuvlarining amaldagi vaziyatga mos kelishi bilan belgilanadi;

*ikkinchidan*, kayfiyat individual yoki ommaviyligi orqali uning beqarorlikka sabab boʻlish darajasi aniqlanadi;

*uchinchidan*, kayfiyat sohasi orqali ijobiy yoki salbiy holatlar yuzaga kelayotgan hayot yoʻnalishi va muammolar koʻrsatiladi;

to 'rtinchidan, ijtimoiy kayfiyatga ta'sir etuvchi hayotiy shart-sharoit va omillar uning barqarorligi va davomiyligini namoyon qiladi.

Ilmiy ishda xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatini tadqiq qilishning aprior modeli taqdim etilgan. Ushbu model orqali xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyatini aniq va tizimli tarzda tadqiq qilish imkoniyati hamda tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirish maqsad qilingan (1-rasm, 14-bet).

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi "Xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatining shakllanishiga ta'sir koʻrsatuvchi omillar va shart-sharoitlarning sotsiologik tahlili" deb nomlangan. Mazkur bobda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi jarayonida xotin-qizlar dunyoqarashi va qadriyatlarida yuzaga kelayotgan transformatsiyalar, ularning ijtimoiy hayotga bergan baholari hamda kelajakka oid umidlari tahlil qilingan. Shuningdek, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va jamiyatdagi mavqeyiga ta'sir koʻrsatuvchi omillar kompleks tarzda oʻrganilgan.

Mamlakat xotin-qizlarining islohotlar va oʻzgarishlarga moslashuvi, hayotiy sharoitlari hamda ularga ta'sir etuvchi omillar ekspert baholari asosida tahlil etilgan. T.Narbayeva, M.Bekmurodov, A.Seitov, N.Latipova, M.Baltabayeva, M.Ergasheva, L.Eryigitova, I.Romanova, O.Xasbulatova va L.Yegorova kabi olimlarning ilmiy-amaliy ishlari ekspertlar bilan oʻtkazilgan soʻrovlar davomida asos qilib olingan.

Dissertant, bir tomondan, gender tengligi va ayollar huquqlari bilan bogʻliq liberal qadriyatlarning kirib kelishi, ikkinchi tomondan, milliy qadriyatlarning saqlanib qolayotganligi, shuningdek, bozor iqtisodiyoti ta'sirida (mehnat migratsiyasi, tabaqalanish, pulga muhtojlik va boshqalar) inson hayotida iqtisodiy omillarga yoʻnalganlikning ortishi hamda diniy gʻoyalarning ta'siri (ayniqsa, ularning siyosiylashtirilishi) jamiyat qadriyatlarining shaklan oʻzgarishiga kuchli ta'sir koʻrsatayotgani ta'kidlagan.

#### MAQSAD: Xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatini aniqlash (baholash)

#### Vazifalar:

- xotin-qizlarning ijtimoiy-demografik kategoriya sifatida oʻziga xos xususiyatlarini belgilash;
- xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyati shakllanishiga ta'sir qiluvchi hayotiy muhim omillar va shart-sharoitlarni aniqlash, tizimli tahlil qilish;
- ayollar ijtimoiy kayfiyatini tavsiflovchi ijtimoiy-siyosiy indikatorlarni aniqlash va iqtisodiy faolligini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilish;
- xotin-qizlarning oʻz salohiyatlarini roʻyobga chiqarishlari uchun yaratilgan imkoniyatlar, ular duch kelayotgan muammolar yechimlari, istiqbolda davlatning ayollarga yoʻnaltirilgan siyosati yoʻnalishlarini yanada takomillashtirish borasida dolzarb takliflar ishlab chiqish.

#### Xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatini baholash mezonlari:

- kayfiyatning individual yoki ommaviy ekanligi;
- ijtimoiy kayfiyatning ijobiy yoki salbiy ekanligi;
- ijtimoiy kayfiyat sohasini aniqlash;
- ijtimoiy kayfiyatning barqarorlik darajasi.

#### Tadqiqot usullari, instrumentariy, ma'lumotlarni yigʻish

Asosiy usullar: ekspert soʻrovi, anketa soʻrovi.

**Instrumentariy:** anketa – yopiq savollar, bipolyar reyting shkalasi (indeks uchun); yarim ochiq savollar, tartibsiz shkala (sifatiy tahlil uchun);

ekspert so'rovnomasi – ochiq savollar (sifativ tahlil)

**Tanlash:** ekspertlar – maqsadli va "qor uyumi" usuli; xotin-qizlar – koʻp bosqichli va kvotali.

**Qoʻshimcha ma'lumot manbalari:** huquqiy va statistik ma'lumotlar; boshqa tadqiqotlar natijalari.

**Ma'lumotlarni to'plash:** so'rovlar o'tkazish; statistik ma'lumotlar; huquqiy-normativ hujjatlarni saralash.

# Xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyati indikatorlari:

- Xotin-qizlarning oʻz-oʻzini his qilishi:
- baxtlilik darajasi;
- oʻz hayotidan mamnunligi;
- stress holati.
- 2. Iqtisodiy farovonligi:
- xotin-qizlar moddiy holati;
- xotin-qizlar bandligi;
- xotin-qizlar tadbirkorligi.
- 3. Mamlakatdagi asosiy sohalarning baholanishi:
- xotin-qizlar ta'lim olishi;
- xotin-qizlar va sogʻliqni saqlash;
- xotin-qizlar ijtimoiy faolligi;
- xotin-qizlar ijtimoiy-huquqiy himoyasi;
- mahalliy hokimiyat organlari faoliyati.

#### Ma'lumotlarni tahlil qilish va interpretatsiyasini amalga oshirish:

**Sifatiy**: ekspertlar fikrlari, omillar tahlili muammolarning oʻzaro bogʻliqligi;

**Miqdoriy**: ijtimoiy kayfiyat indeksi - hudud va indikatorlar boʻyicha qiyosiy tahlil; fikrlarning davriy tahlili;

Taklif va tavsiyalar – ishlab chiqish, asoslash.

#### Hisobot berish:

Tahliliy ma'lumotnomani va takliflarni tegishli tashkilotlarga yoʻnaltirish.

Qoʻshimcha tadqiqot ishlari olib borish Tashkiliyhuquqiy choratadbirlar

# NATIJA: Amalga oshirilgan ishlar yakunlari boʻyicha hisobot

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijalari


#### 1-rasm. Xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatini kompleks tadqiq qilish modeli\*

\* Izoh: aprior model – empirik tadqiqotlarni yoʻnaltiruvchi, nazariy jihatdan asoslangan vosita boʻlib, ularning tizimliligini, ratsionalligini va natijalarning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

Oʻzbekiston xotin-qizlari orasida oila qurish hamda farzandli boʻlish kabi an'anaviy qadriyatlar hali ham ustuvor ahamiyatga ega boʻlgan holda aynan oilaning

muqaddasligi, farzandlar tarbiyasi, oilada erga (ayrim hollarda otaga) nisbatan munosabat, mehr-oqibat kabi qadriyatlarda ayrim oʻzgarishlar yuzaga kelayotgani aniqlangan. Dissertant mazkur fikrlarga tayangan holda mamlakatda xotin-qizlar dunyoqarashi oʻz "asoslar"ini qidirayotgani va turbulent holatda ekanligi asoslangan.

Islohotlar va qadriyatlarning transformatsiyasi, jamiyatda sodir boʻlayotgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy oʻzgarishlarni aks ettiradi. Bu oʻzgarishlar ayollarning dunyoqarashiga sezilarli ta'sir koʻrsatib, ularning orasida turli xil tipologik xususiyatlar (ratsionallik, milliylik, diniylik) atrofida qutblanishni keltirib chiqaradi. (2-rasm).



2-rasm. Ayollar dunyoqarashiga ta'sir qiluvchi omillar va xotin-qizlar tipologiyasi\*

\*Izoh 2. Tahlillar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatining muhim koʻrsatkichlaridan biri sifatida ularning jamiyatga moslashish darajasi tadqiq qilingan. Yuqoridagi toifalardan tashqari biror dunyoqarash asosida qat'iy yashay olmayotgan marginal xotin-qizlar guruhi ham mavjudligi ta'kidlangan. Shu nuqtayi nazardan jamiyatdagi oʻzgarishlarga nisbatan munosabati hamda ijtimoiy mavqeyi asosida xotin-qizlarni "moslashayotgan", "qisman moslashayotgan" hamda "moslasha olmayotgan" xotin-qizlar toifalariga ajratish taklif etilgan.

Jamiyatda tinchlik va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun oilasiga sadoqatli, dunyoviy va diniy bilimlarga ega, milliy an'analarni hurmat qiladigan,

insoniylik, adolat, vatanparvarlik va tenglik gʻoyalariga asoslangan (ratsional dunyoqarash) xotin-qizlar obrazini targʻib qilish zarurligi asoslangan. Ayollarning oʻz ustida muntazam ishlashi, chuqur bilimlarni egallashi, aniq maqsadlarni belgilay olishi hamda ularga erishish yoʻlida barcha imkoniyatlardan toʻliq foydalanish qobiliyati (ratsional dunyoqarash) ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi faolligini oshirishda dolzarbligi asoslangan. Bundan tashqari, dissertant davlat taraqqiyotiga oid qarorlar qabul qilish jarayonida xotin-qizlarning bevosita ishtirokining ta'minlanishi muhim ekanini ta'kidlab oʻtgan.

Tadqiqot natijalariga koʻra, respondent xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyatida barqaror ijobiy baholar ustunlik qilsa-da, ijtimoiy hayotning turli sohalari, hududlar kesimida hamda ijtimoiy baholar (170) va ishonch darajasi (158) oʻrtasida farqlar aniqlangan (1-jadval). Shunga koʻra, xotin-qizlarning ijtimoiy kayfiyatidagi ijobiy tendensiyalar bilan birga kelajakka nisbatan xavotirlar ham tahlil etilib, ijtimoiy kutuvlar va jamiyatda amalga oshirilayotgan transformatsion oʻzgarishlar oʻrtasidagi muvozanatni saqlashning zarurligiga e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot davomida ayol-respondentlarning koʻpchiligida ijobiy baholar va kutuvlarning qayd etilgani (164) ularning koʻtarinki kayfiyatda kelajakka umid bilan qarashi ustunlik qilishi, jamiyatda ijobiy oʻzgarishlar yuz berayotgani aniqlangan.

Respondentlarning kelajakka ishonch darajasi oʻz hayotiga va sohalarga bergan ijtimoiy baholariga nisbatan pastroq ekanligi ularning bugungi kungi ijtimoiy vaziyatdan qanoatlanish darajasiga qaramay, har beshinchi holatda kelajak borasida noaniqlik yoki xavotir hissi borligini koʻrsatgan. Bu holat ta'lim, tibbiyot, xotinqizlar bandligi sohalarida koʻproq kuzatilgan. Shuningdek, iqtisodiy jihatdan qiyinchilikka uchrayotgan hamda oilaviy hayotda muammolari bor boʻlgan xotinqizlar orasida koʻproq qayd etilgan.

Ayrim holatlarda kutilayotgan frustratsiya holati ruhiy, oilaviy va ijtimoiy barqarorlik resurslari (oʻziga ishonch, oilaning qoʻllab-quvvatlashi, ijtimoiy aloqalar) hamda jamiyatdagi *"an'anaviy optimizm"* fenomeni tufayli xotin-qizlarning konstruktiv faollikka oʻtishini osonlashtiradi.

Shu bilan birgalikda ijtimoiy kutuvlar yuqori boʻlgan sohalar aniqlangan. Xususan, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi boʻyicha (184 ball) istiqboldagi vaziyat (161 ball) nisbatan yuqori baholangan. Bu holat, bir jihatdan, xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeyini oshirishga qaratilgan sa'yharakatlarning oʻz ijobiy natijasini berayotganini, ikkinchidan, xotin-qizlarning oʻz imkoniyatlariga boʻlgan ishonchi ortib borayotganini koʻrsatgan.

Hududlar kesimida Buxoro viloyatida xotin-qizlarning ta'lim olish, ijtimoiyhuquqiy himoya qilinishi, ayollar tadbirkorligi koʻrsatkichlari, ayniqsa, ijobiy baholangani ularning ijtimoiy kayfiyati eng yuqori natijalarni namoyon qilishini ta'minlagan. Bu holatga bir tomondan, soʻrovlar oʻtkazilgan davrda viloyatga yuqori darajada qaratilgan e'tibor, moddiy qoʻllab-quvvatlash (davlat rahbari tashrifi) bilan izohlanadi. Shu bilan birga, respondentlarning oʻz kuchiga boʻlgan ishonchi va xotin-qizlar ta'limiga berilayotgan e'tibor, ayniqsa, yosh avlod vakillari orasida yuqori ekanligi ijobiy ta'sir etmoqda.

Fargʻona viloyatida deyarli barcha indikatorlar boʻyicha, ayniqsa, hayotdan qoniqish darajasi, ta'lim olish imkoniyati boʻyicha nisbatan past koʻrsatkichlar qayd etilgan. Bu holat hududda ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklar hamda salbiy gender stereotiplarining saqlanib qolayotgani, shuningdek, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari bilan izohlangan (1-jadval).

1-jadval Xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyati indeksi hudud va indikatorlar boʻyicha<sup>12</sup>

Hududlar		Hayotdan qoniqish	Xotin-qizlarning ta'lim olishi	Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi	Xotin-qizlarning ijtimoiy va huquqiy himoyasi	Mahalliy hokimiyat organlari faoliyati	Ayollar tadbirkorligi	Xotin-qizlar bandligi	Xotin-qizlar va tibbiy xizmatlar	Xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyati umumiy indeksi (hududlar boʻyicha va oʻrtacha)
	a*	198	196	187	189	199	183	166	191	189
Buxoro viloyati	b	194	180	192	194	193	183	179	174	186
	c	196	188	189	192	196	183	173	182	188
Toshkent shahri	a	186	190	153	170	156	156	154	146	164
	b	163	164	192	149	155	144	141	158	158
	c	174	177	173	159	156	150	147	152	161
TD 11 4	a	183	192	153	167	155	158	150	151	164
Toshkent viloyati	b	159	156	189	148	151	140	139	115	150
viioyati	c	171	174	171	158	153	149	144	133	157
Fargʻona viloyati	a	184	185	154	180	174	164	152	163	167
	b	144	136	168	148	149	125	126	139	141
	c	164	161	161	164	161	144	139	151	156
Hududlar	a	188	195	161	176	171	164	158	140	170
boʻyicha	b	171	160	184	159	161	148	147	136	158
umumiy indekslar	С	180	178	172	168	166	156	153	138	164

<sup>\*</sup> Izoh: a – ijtimoiy baholar indeksi, b – ishonch darajasi indeksi, c –umumiy indeks

Dissertant fikricha, hududlar oʻrtasidagi farq koʻp jihatdan joylardagi infratuzilma, sohalarning rivojlanganlik darajasi, aholining moddiy ta'minlanganligi hamda xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyi bilan bevosita bogʻliq.

Oʻtkazilgan tahlillar xotin-qizlar ijtimoiy kayfiyatiga ta'sir koʻrsatuvchi asosiy omillar sifatida moddiy ta'minot, oilaviy barqarorlik, salomatlik darajasi, ijtimoiy tarmoqlar va gender stereotiplarni belgiladi.

Moddiy ta'minot eng muhim omillardan biri bo'lib, respondentlarning 72 foizi uni "o'ta muhim" va 19,4 foizi "ko'p jihatdan muhim" deb baholagan. Ish bilan ta'minlanmaganligi va barqaror daromad manbayiga ega bo'lmaganligi sababli moddiy qiyinchiliklarni his qilayotgan respondent-ayollarning 60 foizdan ortig'i o'zini "baxtsiz" his qilishini bildirgan.

Moddiy mustaqillik masalasi shaxsiy hayot qarorlariga ham kuchli ta'sir koʻrsatadi. Vaqtincha ishsiz toifasidagi ayollarning qariyb 40 foizga yaqini uchun

-

<sup>&</sup>lt;sup>12</sup>Muallif tomonidan xotin-qizlar oʻrtasida oʻtkazilgan sotsiologik soʻrovlar natijalari asosida hisoblangan.

oila qurish "koʻp jihatdan" (15 foiz) yoki "umuman muhim emas"ligi (25 foiz) kuzatildi. Shuningdek, ta'lim olayotgan hamda qoʻshimcha ishlaydigan (15 foiz) va tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanuvchi xotin-qizlar (17,6 foiz) orasida ham oila qurish masalasida salbiy javoblar qayd etilgan. Bu toifadagi ayollarni oʻzin moddiy jihatdan ta'minlash ehtiyoji va bu ehtiyojning toʻliq qondirilmaganligi holati birlashtirib turganini anglash mumkin. Xususan, oilaviy hayoti va moliyaviy ta'minotida beqarorlikni boshidan kechirayotgan xotin-qizlar oʻrtasida ishonchsizlik hamda ikkilanish holatlari 70-80 foiz holatlarda koʻproq uchragan.

Oilaviy barqarorlikning muhimligi 72,3 foizni tashkil etadi. Oilaning ahamiyatsizligini ta'kidlagan respondentlar orasida ajrashgan hamda beva xotinqizlar ulushi (har ikkinchisi) koʻpchilikni tashkil etdi. Turmushga chiqqan (87 foiz) va hali turmush qurmagan (81 foiz) xotin-qizlar esa bu borada koʻproq ijobiy fikrda ekanligi aniqlandi. Shu bilan birgalikda, yolgʻiz yashovchi har toʻrtinchi ayol (23 foiz) oila qurishni "umuman muhim emas" deb hisoblaydi.

Salomatlik darajasi boʻyicha olib borilgan tahlillar natijasida, oʻzini "butkul sogʻlom" deb bilganlarning 85 foizi hayotidan baxtli ekani, salomatligida jiddiy muammolari boʻlganlarning esa faqat 35 foizi hayotidan qisman qoniqishi, qolgan 65 foizi esa umuman qoniqmasligi ma'lum boʻldi.

Ijtimoiy tarmoqlar ham muhim ta'sir koʻrsatuvchi omil boʻlib, yoshga qarab sezilarli farq qiladi: 18-24 yoshli xotin-qizlarning 66,7 foizi uchun bu omil muhim boʻlsa, 65 yoshdan kattalar orasida atigi 11,7 foizni tashkil etadi. Empirik tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan yolgʻon axborotlar, manipulyativ kontent hamda doimiy jamoaviy bosim ostida boʻlish "raqamli stress" va ijtimoiy ishonchsizlikni keltirib chiqaruvchi asosiy sotsiopsixologik omillar hisoblanadi.

Hozirda xotin-qizlar hayotida va jamiyatda gender tengligi gʻoyasini tushunish, uni oʻz hayotiga tatbiq qilish jarayoni kechmoqda. Mazkur qarashlar ayollarning oilaviy qadriyatlariga oʻz ta'sirini koʻrsatmoqda. Oilada gender tengligini ta'minlash murakkab va qiyin masala ekanligini xotin-qizlarning tegishli savolga bergan javoblaridan ham anglash mumkin. Ularning 46,5 foizi oilada huquq va burchlarning teng taqsimlanishi "oʻta muhim"ligini, 29,1 foizi "koʻp jihatdan muhim"ligini ta'kilashgan boʻlsa, qolganlari bu borada ikkilanish yoki salbiy munosabatini bildirishgan. Shu oʻrinda gender stereotiplarining aksariyati milliy va diniy qadriyatlar bilan asoslannishini ta'kidlash lozim.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi (Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Fransiya, Daniya, Kanada) xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi va bandligini ta'minlash ijtimoiy tarmoqlardagi yolgʻon axborotlar, manipulyativ kontent va jamoaviy bosimlardan kelib chiqadigan salbiy ta'sirlarni kamaytirishda markaziy ahamiyatga egaligini asoslagan. Iqtisodiy mustaqillik ularning oʻziga boʻlgan ishonchini oshirib, tashqi manipulyatsiyalarga qarshi turish qobiliyatini mustahkamlaydi. Bandlik yangi bilim va koʻnikmalarni egallash, ijtimoiy aloqalarni kengaytirish imkonini berib, shaxsiy rivojlanish va psixologik barqarorlikni ta'minlaydi. Bu esa ayollarning jamiyatdagi faol ishtirokini kuchaytiradi va gender stereotiplariga qarshi kurashishda muhim omil sifatida ijtimoiy ishonch inqirozini bartaraf etishga hissa qoʻshadilar.

Dissertatsiya ishida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va jamiyatdagi mavqeyiga strukturaviy, ijtimoiy hamda individual darajada ta'sir qiluvchi omillar

